

## Azimnoma – nazmnoma

Shoirilar ichida buyuklik va suyuqlik nisbatini el dardiga malham bo'lishdek maqsad bilan uyg'unligi haqida so'z ketsa, iste'dodli shoir, Butunjahon shoirilar Kongressining a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Azim Suyun beixtiyor ko'z oldingizga keladi. Ayrim shoirilar she'r yozadi, lekin o'z she'rini yoddan bilmaydi yoxud ifodali o'qiy olmaydi. Azim aka o'z she'rlarini jo'shqin tarzda o'qishi bilan barchaning e'tiboriga tushishini institutimizda tashkil etilgan "IBRATLI, IJODKOR INSONLAR" ruknidagi ijodiy muloqotda yaqqol his etdik. Azim Suyun bilan o'tgan ijodiy muloqot samimiy va qiziqarli tarzda kechdi. Yaqinda chop etilgan "Ey do'st, yoxud Azimnoma" deb nomlangan kitobining taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Azim Suyunning nazmiy va nasriy qayirmalari o'zining salmog'i, zalvorli yuki va teran mazmuni bilan alohida ajralib turadi. Uning Umar Xayyom, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy va Bobur ijodiga befarq emasligini she'rlarini mutolaa qilish asnosida sezish qiyin emas. Azim Suyunning g'ayrati va mehnati bilan qayirma ham mustaqil janr xususiyatiga ega bo'lgani sir emas. "Ey do'st" degan satr shunchaki murojaat emas, u turli o'rinlarda turlicha ma'no va ohang kasb etadi. To'rtlikni ma'no va shakl jihatidan yangilamoqda. Shu bilan Sharqda ming yillardan beri o'zgartirib bo'lmaydiganday tuyulgan to'rtlik, eng muhimi, yangicha ruhda ko'rinmoqda, deya baho bergan ushbu kitobga so'zboshi yozgan O'zbekiston qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov. Institutimizda tashkil etilgan tadbir nihoyasida shoirga esdalik sovg'alari va Institut rektori O'.Umurzakov va "Notiqlik san'ati akademiyasi" ta'lim muassasasining direktori tomonidan imzolangan FAXRIY YORLIQ taqdim etildi. Ma'naviy tadbir ko'pchilikda iliq taassurot qoldirdi.



**"Gumanitar fanlar" kafedrasining assistenti Bahridin Muqimov axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**